



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 289 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY JIHATLARI

Quliyev Begimqul Melikovich

SamISI "Investitsiya va innovatsiyalar"
kafedrası dotsent v.b., PhD

Annotatsiya: Iqtisodiyotda maishiy xizmat ko'rsatish sohasining samarali ishlashi va rivojlanishi muammolari dolzarb sanaladi, chunki zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari inqirozli hodisalarga ta'sirchan hisoblanadi. Mazkur maqolada maishiy xizmatlar bozorining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsad va usullariga aniqlik kiritilgan. Yangi sharoitlarda maishiy xizmatlar bozorining holati, aholiga to'liq xizmat ko'rsatish darajasi, mavjudligi hamda umuman jamiyat barqarorligiga bo'lgan ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar: maishiy xizmat ko'rsatish sohasi, maishiy xizmatlar tarkibi, maishiy xizmatlar bozori, davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi, maishiy xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari.

Abstract: The problems of effective functioning and development of the household services sector in the economy are relevant, since in modern economic conditions, household service enterprises are affected by crisis events. The article clarifies the main goals and methods of state regulation, taking into account the specific characteristics of the household services market. The state of the household services market in the new conditions, the state of full service provision to the population, its availability and the stability of society as a whole are assessed.

Key words: household services sector, structure of household services, household services market, efficiency of state regulation, household service indicators.

Аннотация: Iqtisodiyotda maishiy xizmat ko'rsatish sohasining samarali ishlashi va rivojlanishi muammolari dolzarb sanaladi, chunki zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari inqirozli hodisalarga ta'sirchan hisoblanadi. Mazkur maqolada maishiy xizmatlar bozorining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsad va usullariga aniqlik kiritilgan. Yangi sharoitlarda maishiy xizmatlar bozorining holati, aholiga to'liq xizmat ko'rsatish darajasi, mavjudligi hamda umuman jamiyat barqarorligiga bo'lgan ta'siri baholanadi.

Ключевые слова: maishiy xizmat ko'rsatish sohasi, maishiy xizmatlar tarkibi, maishiy xizmatlar bozori, davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi, maishiy xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari.

KIRISH

Mamlakatda kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun, eng avvalo, davlat tomonidan vaziyatni o'rganish, tendensiyalarni tahlil qilish, ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan rivojlanishni bashorat qilish imkonini beruvchi ishonchli ma'lumotlarni olish maqsadida sohani batafsil o'rganishdan boshlab kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Hozirgi axborot jamiyatida iqtisodiyotni maqbul tartibga solishning asosi – ijtimoiy tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishdir. Ya'ni, bu – ma'lum bir bozorning barcha ishtirokchilari uchun maksimal iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradigan minimal zarur nazorat harakatlarning belgilanishi bilan bog'liq.

Sanoat xizmatlari bozori ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi bo'g'in sifatida maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishning



asosiy vazifalari – bozor infratuzilmasini takomillashtirish, aholiga zarur bo'lgan yangi turdagi maishiy xizmatlarni joriy etish, bozordagi xizmatlar talab va taklifiga mos kelishini ta'minlash hamda qishloq va borish qiyin bo'lgan hududlarda xizmat ko'rsatish hajmini oshirishdan iborat. Maishiy xizmatlar bozorining holati va rivojlanishi hayot sifati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Aholi turmush darajasining pastligi esa bu sohada bozor mexanizmlarini takomillashtirishga to'sqinlik qilmoqda.

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlarning salmoqli qismini yirik ishlab chiqarish obyektlarini yaratish uchun moliyaviy resurslarga ega bo'lmagan shaxslar tashkil etadi. Bu kichik tadbirkorlar, ayniqsa, davlat idoralari himoyasi va yordamini zarur deb biladi.

Globallashuv sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu boradagi amaliy tajribaning kamligi va tartibga solinmagan globallashuv jarayonlari mamlakat hududlarida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy sharoitda globallashuv jarayoni doirasida mintaqaviy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va mavjud muammolarini aniqlash, shuningdek, xizmat ko'rsatishning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi – globallashuv sharoitida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda mavjud muammoli maydonni aniqlash va uning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, jumladan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Har qanday zamonaviy davlat tuzilmasining asosiy maqsadi – jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini iqtisodiy tartibga solish tizimini optimallashtirish orqali maksimal darajada birlashtirishdan iborat. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish – bu o'zgaruvchan sharoitlarni hisobga olgan holda, amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni optimallashtirish maqsadida vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va nazorat xarakteridagi tipik chora-tadbirlar tizimidir.

Bozor iqtisodiyotining boshlanish davrida maishiy xizmatlar bozorining rivojlanishi bir xilda kechmagan. Bir tomondan, korxonalar – maishiy xizmat ko'rsatish markazlarining qayta tashkil etilishi munosabati bilan bir qator xizmat turlarining qisqarishi kuzatilgan. Boshqa tomondan, bozor mexanizmi ta'sirida maishiy xizmatlar bozorida narxlarning shakllanishi ayrim hollarda aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun arzon xizmatlarning "yuvilishiga" va nisbatan yuqori daromadli aholi uchun maishiy xizmatlar hajmining ortishiga olib kelgan. Maishiy xizmatlar bozorida bunday qarama-qarshiliklar jamiyatdagi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [1].

Hozirgi vaqtda O'zbekiston maishiy xizmatlar bozori davlat tomonidan ham, nodavlat tuzilmalar va o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmlar orqali ham rivojlanishni tartibga solish va qo'llab-quvvatlashni talab qilmoqda. O'z-o'zini tartibga solish usullari sifatida uyushmalar (birlashmalar) va o'zini-o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy fanda maishiy xizmat ko'rsatish sohasida xususiy sektorni davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy nazariyasi bo'yicha B.A. Raizberg bozorlarni davlat tomonidan tartibga solishni – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga tartibga soluvchi ta'sirining maxsus shakli va sohasi sifatida belgilaydi [2].

V.I. Koshkina va V.M. Shupiro esa davlat tomonidan tartibga solishni "qonunchilikni, soliq tizimini, bojxona to'lovlarini, valyuta kurslarini o'zgartirish, cheklov vositalaridan foydalanish yoki, aksincha, muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning hatti-harakatlariga va shu orqali butun iqtisodiyotga bilvosita ta'sir ko'rsatish tizimi" deb izohlaydi [3].

T.V. Bukli "tartibga solish"ni – davlat organlari va nodavlat tuzilmalar tomonidan atrof-muhitni huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimi orqali erkin va sivilizatsiyalashgan tadbirkorlik faoliyatini samarali va barqaror rivojlantirishni ta'minlaydigan mexanizm sifatida ta'riflaydi [4].

R.S. Melnik esa "davlat boshqaruvi" toifasining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy ehtiyojlarga mos kelmasligi haqida qat'iy fikr bildiradi. Olimning ta'kidlashicha, "davlat tomonidan tartibga solish" atamasi "huquqiy tartibga solish" tushunchasidan kelib chiqqan bo'lib, aynan huquqiy normalar orqali amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, maishiy xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish – bu ma'muriy huquq normalarining jamoat munosabatlariga ta'siri orqali ro'yobga chiqariladi [5].

Mualliflar T.I. Zvorykina, N.A. Platonova va A.K. Kondratieva maishiy xizmat ko'rsatish tizimini iqtisodiy modernizatsiya sharoitida tahlil qilib, uning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini aniqlaydi. Ergonomik yondashuv asosida ular maishiy xizmat ko'rsatish ishlarining mohiyati va samaradorligini nazariy jihatdan baholaydi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida mehnat resurslaridan foydalanish jarayonini tashkil etishning umumiy ilmiy yondashuvini ishlab chiqqan, texnik xizmat ko'rsatish davrida xarajatlarni kamaytirish yo'llarini aniqlagan



va xizmat ko'rsatish korxonalarida inson mehnatidan foydalanishni tashkil etishda rag'batlantirishning asosiy konseptual yo'nalishlarini belgilagan [6].

Yuqoridagi fikrlar asosida bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda davlat ishtirokining darajasi va shakllarini aniqlash, tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, manfaatdor guruhlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining ixtiyoriy o'zini o'zi boshqarish shakllarini takomillashtirish orqali tartibga solish zarurligi haqida xulosa qilish mumkin.

Qoida tariqasida, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi – ijtimoiy ishlab chiqarish doirasida aholiga xizmat ko'rsatish faoliyatining barcha funksional turlarini o'z ichiga oladi. Takror ishlab chiqarish jarayonidagi faolligiga qarab, bu sohaning ehtiyojlarni qondirishdagi roli sezilarli farq qiladi. Maishiy xizmatlar nafaqat mavjud ehtiyojlarni qondirishga, balki aholining ehtiyojlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi va odamlarning vaqtini tejash imkonini beradi.

O'rganilgan tadqiqotlar asosida, maishiy xizmat ko'rsatishni tartibga solish usullari va vositalari orqali ushbu sohadagi ijtimoiy normalarni aniqlash bosqichlari belgilangan. Ushbu jarayonda korxonalarda tashkiliy boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, rivojlanish manbalari va omillarini aniqlash, shuningdek, tarmoqni samarali rivojlantirish xususiyatlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Shunday qilib, agar xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish zarurati asosli deb topilsa (bu strategik yondashuv sifatida ko'rib chiqiladi), u holda davlat ta'sirining aniq yo'nalishlarini tanlash xizmat ko'rsatish bozorining real rivojlanish darajasiga qarab amalga oshirilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot tizimli uslubiy yondashuvga asoslangan bo'lib, mahalliy maishiy xizmatlar sohasini umuman mintaqaviy iste'mol bozorining, xususan, mintaqaviy xizmatlar bozorining tarkibiy qismlari sifatida aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda tahlil va taqqoslashning umumiy ilmiy usullaridan, shuningdek, dinamikani tahlil qilish, guruhlash orqali iqtisodiy tahlil yuritish, analitik ma'lumotlarni qayta ishlash hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maishiy xizmat sohasi nazariy jihatdan tahlil qilinganda, eng avvalo, uning jamiyat hayotidagi o'rni va kundalik turmush jarayonlari bilan chambarchas bog'liqligi e'tiborga loyiqdir. Ushbu xizmat tarmog'i, o'z mohiyatiga ko'ra, inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, iste'mol qiymatiga ega bo'lgan xizmatlar orqali aholining farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Maishiy xizmatlar mazmunan ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining mantiqiy natijasi bo'lib, u ishlab chiqarish va ayirboshlash munosabatlari orqali shakllangan xizmat ko'rsatish jarayonini aks ettiradi.

Ushbu xizmatlar, odatda, to'g'ridan-to'g'ri iste'molchining ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ijtimoiy ahamiyati va foydaliligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Maishiy xizmatlar aholining hayot sifatini oshirish, turmush darajasini yaxshilash, vaqt va resurslarni tejash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu xizmatlar faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki insoniy omillar bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, maishiy xizmatlar tizimini samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun davlat tomonidan muayyan tartibga solish choralarini ko'rish zarur. Bunda xizmat ko'rsatish sohasining faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarini ham hisobga olish lozim. Aholining ehtiyojlarini kompleks qondirish, ayniqsa kam ta'minlangan qatlamlarga xizmatlar bilan teng sharoitda ta'minlash, ushbu tartibga solish mexanizmlarining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.


Ma'lumki, xizmatlar sektori taraqqiyotining darajasi aholi turmush darajasi va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu sohani faqat bozor mexanizmlari asosida tartibga solish aholining barcha toifalari uchun teng imkoniyat yaratmasligi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun xizmatlar bozori jozibador bo'lmasligi, ularning undan foydalana olish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Hududiy nuqtayi nazardan qaraganda, xizmat ko'rsatish sohasining rivoji nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni rag'batlantirish, mahalliy budjet daromadlarini oshirish kabi dolzarb masalalarni hal etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xizmatlar sohasida daromad keltirmaydigan yoki rentabellik darajasi past bo'lgan, ammo aholiga zarur bo'lgan xizmat turlari mavjudki, ularni rivojlantirish davlat ko'magisiz mushkul bo'ladi.

Shu bilan birga, maishiy xizmatlar sohasi ijtimoiy ahamiyatga ega yana bir jihatni o'z ichiga oladi – bu ish topishda qiynalayotgan yoki to'liq ish kuni bilan ishlay olmaydigan aholining bandligini ta'minlash imkoniyatidir. Jumladan, ayollar, pensiya yoshidagi fuqarolar, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yarim stavkali ish o'rinlari yaratish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish mumkin.



Shubhasiz, ushbu sohani boshqarishda davlat siyosati nafaqat umumiy iqtisodiy manfaatlarni, balki tadbirkorlar, xizmat ko'rsatuvchi sub'yektlar va iste'molchilarning ehtiyojlarini uyg'unlashtirgan holda olib borilishi kerak. Shu bilan birga, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar, rivojlanmagan hududlar va ijtimoiy infratuzilmasi zaif joylarning mavjudligi inobatga olinishi, davlat siyosatining manzilli va moslashuvchan bo'lishini taqozo etadi. Ana endi, yuqoridagi tahlillar asosida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini atroflicha ko'rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish usullari.

So'nggi yillarda hududlarda maishiy xizmat ko'rsatish va servis sohasini samarali boshqarish, ularning sifatini yaxshilash hamda aholiga yaqinlashtirish bo'yicha davlat tomonidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. Mutaxassislar fikricha, ushbu yo'nalishda davlat siyosatini shakllantirish va amaliyotga joriy etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Avvalo, har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini, mavjud resurs cheklavlarini, demografik va geografik xususiyatlarini inobatga olgan holda, samaradorlikni oshirish strategiyasi ishlab chiqilishi kerak. Hududiy tafovutlar real holatda baholanib, rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari aniq belgilanishi zarur.

Shuningdek, maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha turli darajadagi boshqaruv tuzilmalari o'rtasida sinergik, ya'ni bir-birini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi ta'sir mexanizmlarini shakllantirish dolzarbdur. Bu orqali xizmatlar sifati va ularning aholiga yetkazilish samaradorligi ortadi.

Bundan tashqari, ushbu sohada iqtisodiy rag'batlarni yaratish maqsadida adolatli, samarali va hududlar sharoitiga mos soliqqa tortish tizimini shakllantirish talab etiladi. Bu tizim kichik tadbirkorlik sub'yektlari va o'zini o'zi band qilgan fuqarolar faoliyatini legallashtirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Navbatdagi muhim yo'nalish – davlat organlari resurslarini butun boshqaruv tizimi bo'ylab, ya'ni vertikal shaklda – markaziy, hududiy va mahalliy darajalarda birlashtirish hamda koordinatsiyani kuchaytirish orqali xizmatlar sifati va kirish imkoniyatini oshirishdan iborat.

Tartibga solish mexanizmlarining ijtimoiy yo'nalganligini ta'minlash ham alohida ahamiyatga ega. Bu borada asosiy mezon sifatida tartibga solish jarayonining shaffofligi, aholining unga nisbatan ishonchini mustahkamlovchi ochiq axborot tizimlari va xizmat sifatini baholash mezonlarini joriy etish lozim.

Shuningdek, bozorda raqobatbardosh va innovatsion xizmat turlarini kengaytirish, ularni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun xizmatlar sifatining standartlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va uni quyidagi yondashuvlar orqali qo'llab-quvvatlash zarur: ma'muriy-huquqiy asoslar, moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar, dasturiy-maqсадli loyihalar hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalar.

Nihoyat, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimidagi siyosiy-huquqiy institutlar faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokini faollashtirish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mumkin. Bu holat aholining xizmat ko'rsatish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va xizmatlar qamrovini kengaytiradi.

Shu tarzda, nazorat va tartibga solish mexanizmlarini izchil takomillashtirish maishiy xizmatlar sohasida muvozanatli, ijtimoiy adolatga asoslangan va barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi [6].



Davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- korxona va muassasalar barqarorligini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar (jumladan, turli yordam turlari, moliyaviy yordam, investorlarni jalb etish va hokazo);
- arbitraj va bankrotlik bo'yicha boshqaruvchilar institutini tashkil etish;
- samarasiz korxona va muassasalarni ixtiyoriy tugatish imkoniyatlarini yaratish;
- strategik inqirozlarni (iqtisodiy inqirozlar) bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rish.

Agar davlat va korxona/muassasa o'rtasidagi o'zaro munosabatlar darajasiga e'tibor qaratilsa, bu holatda davlatning roli makrodarajaga nisbatan ancha past bo'ladi. Davlat beqarorlikka qarshi kurashni butun iqtisodiyotdan tortib, mahalliy darajagacha bo'lgan miqyosda ta'minlaydi, undan keyin esa korxona yoki muassasaning o'zi faoliyatini kengaytiradi. Agar korxona bankrotga uchragan yoki uning samaradorligi past bo'lsa, davlat zarur hollarda unga aralasha oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin raqobat xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni belgilaydi. Biroq ayrim davrlarda (masalan, bozor kon'yunkturasining yomonlashuvi, yuqori inflyatsiya va ishsizlik) dunyoning hech bir davlati bozor munosabatlarini oqilona davlat aralashuviz tartibga sola olmaydi.

Masalan, Germaniya va Fransiya maishiy xizmatlar bozorini maxsus davlat organlari tartibga soladi. Fransiya bu bozor qonunchilik, tartibga solish, ta'lim va boshqa tuzilmalar orqali boshqariladi. Savdoni boshqarish tuzilmasi iste'mol sohasidan mustaqil bo'lib, davlat organlariga bo'ysunmaydi. Fransiya xizmat ko'rsatish sohasi eng yuqori darajada davlat tomonidan, mezo- va mikro-darajalarda esa hunarmandchilik palatalari tomonidan tartibga solinadi. Ular "yuqoridan" yuklangan funksiyalar – tartibga solish, fond taqsimoti, ta'lim va boshqalarni bajaradi. Hunarmandchilik palatalarining a'zolari federal darajada viloyat yoki shahar munitsipal hukumati tomonidan tasdiqlanadigan kengashni saylaydi.

Germaniyada esa maishiy xizmat ko'rsatish sohasiga Iqtisodiyot vazirligi va Ta'lim vazirligi rahbarlik qiladi. Yer va shahar hunarmandchilik palatalari esa ijro etuvchi funksiyalarga ega. Shunday qilib, Germaniya va Fransiya iste'mol bozorini boshqarish tuzilmasi mohiyatiga ko'ra bir xil shakllangan.

O'zbekistonda ham xizmatlar sohasini oqilona tartibga solish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, so'nggi besh yil ichida xizmatlar sohasi barqaror o'sishni namoyon etdi (2020-yil pandemiya sababli 99,2 foizgacha pasaygan bo'lsa-da). Keyingi yillarda o'sish sur'atlari tiklandi:

2021-yilda – 110,9%,
2022-yilda – 109,1%,
2023-yilda – 107,1%,
2024-yilda – 107,7%.

Maishiy xizmatlar bozorining rivojlanishi, yangi faoliyat turlarining vujudga kelishi va texnologiyalarning kun sayin takomillashib borishi davlat va mahalliy darajadagi tartibga solish tizimini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Qonunchilikni o'z vaqtida ishlab chiqish va mavjud muammolarni to'liq bartaraf etish nuqtayi nazaridan, maishiy xizmatlar sifatini tartibga solish davlatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Shu yo'nalishda iste'molchilar tomonidan o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarining dolzarbligi oshib bormoqda.

Maishiy xizmat ko'rsatish va ushbu faoliyatning butun doirasi iqtisodiy institutlarning milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rniga qarab quyidagicha tavsiflanadi:

- milliy daromad va ijtimoiy zarur mahsulotni shakllantirishda ishtirok etish;
- moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat unumdorligining o'sishiga, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarning rivojlanish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- aholining pul daromadlari va xarajatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash, mamlakat va uning hududlarida ichki mablag'lar oqimini faollashtirish;
- turmush darajasini oshirish uchun ishdan bo'sh vaqtni samarali tashkil qilish orqali ijtimoiy va hududiy tafovutlarni kamaytirish.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi bosqichida maishiy xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalarning keng ko'lamda rivojlanishi tadbirkorlikni kengaytirish, aholiga qo'shimcha daromad manbalarini yaratish, ish o'rinlarini ko'paytirish va fuqarolar bandligini ta'minlash, shuningdek, asosiy ish bilan bir qatorda nostandart bandlikni shakllantirish imkonini bermoqda.

Hozirgi bosqichda maishiy xizmatlar bozori hududiy iste'mol bozorining muhim tarmog'i bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri – aholining qulay yashash darajasini oshirishdan iborat. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarining samaradorligini oshirish quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga xizmat qilishi mumkin:

muayyan hududdagi turli yoshdagi mehnatga layoqatli aholining bandligi va ish haqi;
mahalliy budjetga soliq tushumlarining ko'payishi;
yalpi hududiy mahsulot, jumladan, maishiy xizmatlar sohasida ishlab chiqarilgan qo'shilgan qiymat;
ijtimoiy nomutanosiblikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish;
hudud iqtisodiy tizimiga investitsiyalar va qo'shimcha mablag'lar jalb etilishini rag'batlantirish.



Iqtisodiy globallashtirish sharoitida mamlakatlar o'rtasidagi integratsiya va xalqaro ixtisoslashuvning kuchayishi ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash orqali hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash vazifalarini kun tartibiga qo'yimoqda.

Mamlakatimizda tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish va milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini ta'minlash, daromadlari va turmush sifatini oshirish, maishiy xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xizmatlar bozorida mavjud muammolarni davlat aralashuvizsiz hal etib bo'lmaydi. Bunday xizmat turlarini taqdim etuvchi kichik va o'rta tashkilotlar bozorda barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun imtiyozli soliqqa tortish siyosatini davom ettirish va aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimini takomillashtirish lozim.

Hozirgi sharoitda xizmatlar bozori davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solishga muhtoj. Davlat ushbu sohani nazorat qilish, maishiy xizmatlar bozorini tartibga solish va uni rivojlantirishga qodir tizim yaratishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat tomonidan maishiy xizmatlar bozorini tartibga solish masalasida izchil, o'zaro uyg'unlashgan va kompleks siyosat yuritilishi zarur. Chunki ushbu soha aholining kundalik turmush darajasi, hayot sifati va ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi farovonligini oshirishga qaratilgan milliy miqyosdagi dasturlar va loyihalarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xizmatlar sektorining rivojlanishiga, ayniqsa, maishiy xizmatlar tizimining samaradorligiga bog'liq. Shu bois, mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosat olib borish va tizimli davlat qo'llab-quvvatlovini yo'lga qo'yish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, davlatning maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi nazariy va amaliy faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olishi kerak:

- Eng avvalo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatini qonuniy asosda tartibga solish uchun maxsus qonun hujjatini ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Bu hujjat xizmat ko'rsatish sub'yektlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beradi.

- Har bir hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda maishiy xizmat turlarining tasnifini ishlab chiqish, bu orqali sohada mintaqaviy ixtisoslashuvni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

- Mahalliy darajada aholiga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maxsus rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilishi, ularni amaliyotga izchil joriy etish mexanizmlari shakllantirilishi lozim.

- Maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyatini xavfsiz va barqaror yuritish uchun ularni sug'urtalash konsepsiyasi ishlab chiqilishi, bu esa korxonalarni moliyaviy xavflardan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

- Sohaning barqaror rivojini ta'minlash uchun malakali kadrlar tayyorlash, mavjud xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim tizimi ishlab chiqilishi shart.

- Aholiga xizmat ko'rsatish qulayligini oshirish maqsadida maishiy xizmat obyektlarini joylashtirishning yangi, ilmiy asoslangan rejasini ishlab chiqish, bunda transport infratuzilmasi va aholi zichligi kabi omillar hisobga olinishi kerak.

- Soha faoliyatini samarali tartibga solish uchun litsenziyalash, sertifikatlashtirish va xizmat sifati standartlarini takomillashtirish bo'yicha huquqiy va texnik mexanizmlarni ishlab chiqish lozim.

- Har bir hududda xizmatlar tarmog'ini rivojlantirish strategiyasini aniqlovchi konsepsiya va aniq chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilishi kerak. Bu hujjatlar mintaqaviy farqlarga moslashtirilgan bo'lishi zarur.

- Maishiy xizmat sohasiga investitsiyalarni jalb etish uchun iqtisodiy jihatdan asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan loyihalar ishlab chiqilishi, ular bo'yicha davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik mexanizmlari yo'lga qo'yilishi lozim.

- Xizmatlar ko'rsatilayotgan hududlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali raqamli infratuzilmani rivojlantirish, bu esa xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va jarayonlarni soddalashtirish imkonini beradi.

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlarini inobatga olgan holda, nogironlar, keksalar, kam ta'minlanganlar, ota-onasiz bolalarga ega oilalar hamda harbiy-siyosiy vazifalarni bajargan fuqarolar uchun ixtisoslashgan va imtiyozli xizmatlar ko'rsatadigan hududiy xizmat ko'rsatish korxonalari tarmog'ini shakllantirish muhim ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

Ushbu nazariy va amaliy choralarni hayotga tatbiq etish, bir tomondan, maishiy xizmatlar ko'rsatish korxonalarining faoliyat samaradorligini oshirishga, ikkinchi tomondan esa, mamlakatda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish sharoitida xizmatlar sektorining barqaror va tizimli rivojlanishiga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Гарбузов В.Ф. Оценка уровня обслуживания населения и качества жизни: теоретические и методические аспекты // Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. – 2012. – № 4(14). – С. 126–136
2. Райзберг Б.А. Государственное управление экономическими и социальными процессами: учеб. пособие. М.: Инфра-М, 2005.
3. Управление государственной собственностью: учебник / под ред. В.И. Кошкина, В.М. Шупыро. М.: Инфра-М, 1997.
4. Буклей Т.В. Экономические, социальные и организационные формы регулирования развития малых предприятий в сфере платных услуг: автореф. дис. ... канд. экон. наук. М., 2017
5. Мельник Р. С. Система адміністративного права України: монографія. Харків: Вид-во ХНУВС, 2019. 398 с.
6. Зворыкина Т.И., Платонова Н.А. Техническое регулирование: сфера услуг / Зворыкина Т.И., Н.А. Платонова. – Москва: ИНФРА-М, 2017. – 355 с
7. Кривко С.Р. Экономический механизм государственного развития сферы услуг // Общество: политика, экономика, право. – 2012. – № 3. – С. 71–75



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
